

# O'zbekiston "yashil" energetika va yangi materiallar bo'yicha xalqaro ilmiy muloqot markaziga aylandi

2025-yilning 28-30-aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Materialshunoslik institutida "Yangi materiallar va quyosh texnologiyalari" xalqaro ilmiy anjumani bo'lib o'tdi. Ushbu nufuzli tadbirda 17 mamlakatdan 40 nafarga yaqin tadqiqotchi hamda O'zbekistonning yetakchi olimlari ishtirok etib, aqlli materiallar, nanotexnologiyalar va quyosh energetikasi sohasidagi ilg'or ishlanmalarni muhokama qildilar. Anjuman xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, tajriba almashish va hayot sifati, ekologik barqarorlik va innovatsion kelajakka bevosita ta'sir ko'rsatuvchi texnologiyalarni joriy etishda muhim qadam bo'ladi. Alohida e'tibor — atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va aqlli, energiya samarador infratuzilmalarni yaratish imkonini beradigan "yashil" energetika yechimlariga qaratildi.





Tadbirning o'ziga xos jihati — Osiyoda yagona bo'lgan O'zbekistonning Katta Quyosh ularilmasi negizida xalqaro ilmiy hamkorlik masalalarining muhokamasidir. Shuningdek, anjumanda "Yashil texnologiyalar vodiysi" xalqaro ilmiy konsortsiumini tashkil etish tashabbusi taqdim etildi. Bu konsortsium ilmiy-tadqiqot markazlari va sanoat hamkorlarini birlashtirib, qayta tiklanadigan energiya manbalari va yangi materiallar sohasida yuqori texnologiyali yechimlarni yaratish va joriy etishga qaratilgan.

Anjumanning asosiy mavzulari:

- Materiallarda kam uchraydigan va noteng holatlar xotirasi
- Belgilangan xususiyatlarga ega nano va nanokompozit materiallar
- "Yashil" energetika uchun materiallar va texnologiyalar

Anjumanning ikkinchi kunida yosh olimlarning tadqiqot natijalari taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda yangi avlod tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan yangi yondashuvlar, g'oyalar va amaliy yechimlar namoyon etildi.